

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDMAMATOV OLIMJON AMINBOY O‘G‘LI

**OROLBO‘YI MINTAQASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

Saidmamatov Olimjon Aminboy o'g'li

Orolbo'yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....5

Saidmamatov Olimjon Aminboy ugli

Improving the organizational and economic mechanisms for ecotourism development in Aral Sea region.....25

Саидмаматов Олимжон Аминбой угли

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития экотуризма в регионе Приаралья..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDMAMATOV OLIMJON AMINBOY O‘G‘LI

**OROLBO‘YI MINTAQASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2382 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Ikrom Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Nutfillo Salimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 13-aprel soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (998-66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiyasi bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "___" _____ dagi № 10 - raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Barqaror rivojlanish sharoitida ekologiyaga zarar yetkazmagan holda, ijtimoiy muammolarni hal etishga imkon beradigan iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash jahon hamjamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va turizmning ekologik ta'siriga jamoatchilikning munosabati o'zgarishi natijasida tobora ko'proq turistlar sayohatning atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan usuli sifatida ekoturizmni ma'qul ko'radi.

Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda butun dunyoda jami 770 milliondan ortiq kishi ekoturizm xizmatlaridan foydalanish maqsadida sayohat qilgan¹. Shu jihatdan ham jahon hamjamiyatida ekologik turizmni barqaror rivojlantirish, turizm xizmatlari hajmini va sifatini oshirish hamda ekoturistik destinatsiyalarga investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish, soha ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish kabi masalalarga katta ahamiyat berilmoqda.

Jahonda iqtisodiyotning barqaror rivojlanish bo'yicha tajribalar asosida turistik xizmatlarga talabni aniqlash, ekologik turizmni samarali rivojlantirish tamoyillari, omillari va bosqichlarini tasniflash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirish modellarini ishlab chiqish, ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini tadqiq qilishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada yangi ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish, ularning turistik-rekreatsion qiymatini aniqlash, ekoturizmning samarali klasterlarni shakllantirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirgan holda ekologik turizm xizmatlari ko'rsatishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yangi ekoturistik destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik turizmni strategik rivojlantirish modelini ishlab chiqish, jahon miqyosida ekoturistik loyihalarni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonning ekologik salohiyatidan samarali foydalangan holda turizmni barqaror rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Orolbo'yi mintaqasi hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish orqali turizm sohasiga investitsiya jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish kerak»². Ushbu vazifalarni samarali bajarilishida, yangi ekoturistik destinatsiyalarni tashkil qilish imkoniyatlarini o'rganish va tegishli dasturlar ishlab chiqish, ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini aniqlash, mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, jahon tajribasiga asoslangan holda xalqaro talablarga mos keladigan yangi ekoturistik destinatsiyalarni tashkil qilish, ekoturizmga bog'liq infratuzilmalarni rivojlantirish va

¹ Butunjahon turizm tashkiloti (WTTC) rasmiy veb sahifasi <https://www.unwto.org/taxonomy/term/347>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 14-avgustdagi turizm salohiyatini kengaytirishga doir o'tkazilgan loyihalar taqdimotidan nutqi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. <http://uza.uz/oz/society/b-stonli-tumanining-sayye-lar-manziliga-aylanishiga-ar-birim-29-08-2020>

turizm sohasini rivojlantirishning istiqbolli ko'rsatkichlarini aniqlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son "2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-yanvardagi 37-son "Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 13-fevraldagi 119-son "2019-2020-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 14-iyundagi 369-son "2021-2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xorijiy davlatlarda qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, J.Day, Y.Boo, X.Seballos-Laskureyn, V.Adriana, A.Alonso, A.Ogle, A.Aminian, X.Ayala, V.Bramvell, B.Leyn, R.Batler, J.Kukier, Y.Matteus kabi olimlar tomonidan ekologik turizmni rivojlantirish masalalari yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan³. Shunigdek, M.B.Birjakov, A.P.Durovich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, V.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, A.V.Drozdov, V.E.Boreyko, Ye.A.Djandjugazova, N.V.Moralevalar ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar⁴.

³ J. Day, Handbook of Ecotourism. 2021, Routledge. P-89.; Boo, E., Ecotourism: The Potentials and Pitfalls. Volumes 1-2. World Wildlife Fund. Washington, 1990. P-7; Lascrain, H., Integrating Biodiversity into the Tourism Sector: Best Practice Guidelines. 2001.; Adriana B. Environmental supply chain management in tourism: The case of large tour operators. Journal of Cleaner Production, 17, 2009. –P. 1385-1392.; Alonso, A.D., Ogle, A. Tourism and hospitality small and medium enterprises and environmental sustainability. Management Research Review, 33, 2010. – P. 818-826.; Aminian, A. Environmental performance measurement of tourism accommodations in the pilgrimage urban areas: The case of the Holy City of Mashhad. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 35, 2012. – P. 514-522.; Ayala, H. Ecoresort: A 'Green' master plan for the international resort industry. International Journal of Hospitality Management, 14, 1995. – P. 351-374.; Bramwell, B., Lane, B. Towards innovation in sustainable tourism research? Journal of Sustainable Tourism, 20(1), 2012. –P. 1-7.; Butler, R.W. Tourism and the environment: A geographical perspective. Tourism Geographies: An International Journal of Tourism Space, Place and Environment, 2, 2000. – P. 337–358.; Cukier, J. Tourism employment issues in developing countries: Examples from Indonesia. In R. Sharpley, D.J. Telfer (Eds.), Tourism and development, concepts and issues. 2002. –P. 165–201.; Matthews E.J. Ecotourism: Are current practices delivering desired outcomes? A comparative case study analysis. April 30, 2002. Blacksburg, Virginia.

⁴ Биржаков М. Введение в туризм. СПб: «Герда», 2008. –С. 576.; Дурович А. Организация туризма. –СПб: Питер, 2009. –С. 320.; Кабушкин Н. Менеджмент туризма. Минск: Новое знание, 2002. –С. 407.; Квартальнов В. Туризм: Учебник. – М.: ФИС, 2003. – С.320 ;; Сенин В. Организация международного туризма. –М.: ФИС, 2004.

Mamlakatimiz mintaqalarida ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, M.Xoshimov, I. Tuxliyev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, A.A.Eshtayev, M.Aliyeva, A.T.Mirzayev, A.Norchayev, I.A.Axmedov, N.S.Ibragimov, A.K.Alimov, A.A.Qodirov va boshqalarning tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan⁵.

Ammo, yuqoridagi olimlar izlanishlarida mamlakatimizda ekologik turizm sohasini rivojlantirish masalalari keng yoritib berilishiga qaramasdan, bugungi kunda ekologik inqirozli holat vujudga kelgan Orolboʻyi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan masalalar yeterlicha oʻrganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti UDU-1/23-sonli “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqani kompleks rivojlantirish asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orolboʻyi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“hududiy ekoturizm” tushunchasining nazariy asoslari va ekoturizmni ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati, vazifalarini ochib berish;

ekologik turizmni rivojlantirishning xalqaro tajribalarini oʻrganish va mamlakatimiz sharoitida uni qoʻllash masalalarini tahlil qilish;

–С. 379.; Христов Т. Религиозный туризм: уч.пос.-3-е изд., –М.: «Академия», 2007. –С. 288.; Чудновский А. Управление индустрией туризма России в современных условиях: уч.пос. –М.: КНОРУС, 2007. –С. 416.; Дроздов А.В. Как развивать туризм в национальных парках России. Рекомендации по выявлению, оценке и продвижению на рынок туристских ресурсов и туристского продукта национальных парков. –М., ЭкоЦентр «Заповедники», 2000. Р.67-78; Борейко В.Е. Дорога к заповеднику (Природоохранная пропаганда и экопросвещение в заповедных объектах). –М.: Экоцентр «Заповедники», 1996. С.340; Джанджугазова Е. Экотуризм: причина популярности и пути развития. «Академические вести», 1996. С.124-147; Moraleva, N., Ledovskikh, E., Sheftel, B. Ecotourism in Russian Nature Reserves: Possibilities, Problems, Perspectives. In: Report of the International Expert Workshop "Case Studies on Sustainable Tourism and Biological Diversity". German Federal Agency for Nature Conservation. 2000. P.450.

⁵ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: Гос. Науч. Изд. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. -С.386; Hoshimov M. O‘zbekiston ekologik turizmi. Monografiya. Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti DK, 2009. – B.220. Tuxliyev I. Turizm asoslari. Samarqand, SamISI. 2010. B.271, B.Safarov Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. - Samarqand, 2016. B.71; Hamidov O. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. - Samarqand, 2017. B.68; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019. B.71; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019. B.71; Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2021. B.68; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2021. B.78; Alimov A. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari va istiqbollari // iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand SamISI, 2018. B.54.; Qodirov A.A. Ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari // iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, 2022. B.57.

hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilish;

ekoturizm ob'ektlarini iqtisodiy baholash usullarini takomillashtirish, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan baholash tizimini ishlab chiqish;

Orolbo'yi mintaqasida yangi ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish;

Orolbo'yi mintaqasi ekoturizmni rivojlantirishda klasterli yondashuvlarni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Orolbo'yi mintaqasiga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonining dinamikasini prognozlash asosida hududda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Orolbo'yi mintaqasida turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib, Orolbo'yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari sifatida ilmiy ishda mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ekspert baholash usuli, statistik tahlil, ijtimoiy so'rovnoma, SWOT-tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Orolbo'yi mintaqasining turli hududlarida turistlarga qulayliklar yaratish uchun maqsadli ekoturizm marshrutlari xaritasini ishlab chiqish va hududning turli nuqtalarida 50 ming nafar turistlarni qabul qilish imkonini beradigan ekolagerlar va ekomarshalarni yaratish taklifi asoslangan;

Nukus shahrida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan madaniy, MICE turizm, gastro turizm, mehmonxona, SPA, fitnes, umumiy ovqatlanish, turistik mahsulotlarni sotish kabi xizmatlarini kengaytirish asosida turizmga ixtisoslashgan klaster faoliyatini tashkil etishi dalillangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning u yerda qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida 1 kundan 4 kungacha bo'lgan tur paketlar ishlab chiqish hamda turizm sohasining sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan "Cash back" chegirmalarni o'z ichiga olgan hamyonbop turpaketlar ishlab chiqish bo'yicha takliflar asoslangan;

Orolbo'yi hududlari ekoturistik imkoniyati va xususiyatidan kelib chiqib, tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar oqimning oshishini e'tiborga olgan holda turistik xizmatlar hajmining 2027-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Qo'ng'iro't tumani "Barsakelmes" tuz koni va "Sariqamis" ko'li, Amudaryo biosfera rezervati hamda hududdagi o'rmon xo'jaligi yerlaridan turistik ob'ekt sifatida foydalanish asosida har yili 100 mingta mahalliy turistlarni jalb qiladigan turmahsulot ishlab chiqilgan;

ekoturizmni rivojlantirish ilg'or xalqaro tajribalaridan foydalangan holda Orolbo'yi mintaqasida ekoturizmni samarali tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida turizmdan manfaatdor bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlovchi hamkorlik xaritasi (stakeholder mapping) taklif qilingan;

Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish asosida regenerativ (o‘zini o‘zi qayta tiklovchi) iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini va turizm sohasining manfaatdor korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida faol ishlash muhitini ta‘minlaydigan Doughnut (Doughnut) iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan;

Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni targ‘ib qilish maqsadida “Ecotourism and Nature Based Tourism in Uzbekistan” elektron platformasining dasturiy paketi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligining statistik ma‘lumotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati turizm boshqarmalari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mintaqada ekoturizm salohiyatidan va tashkiliy-iqtisodiy omillaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda takliflar Orolbo‘yi mintaqasiga xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimining, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm rolining oshishiga, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy xulosalar asosida:

Orolbo‘yi mintaqasining turli hududlarida turistlarga qulayliklar yaratish uchun maqsadli ekoturizm marshrutlari xaritasini ishlab chiqish va hududning turli nuqtalarida 50 ming nafar turistlarni qabul qilish imkonini beradigan ekolagerlar va ekomarshrutlar tashkil etish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qaroridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 12-dekabrda 02-12-17-2014-sonli ma‘lumotnomasi). Taklifning amalga oshirilishi natijasida Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizm ob‘ektlariga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini 35 % ga oshirishga imkon yaratilgan;

Nukus shahrida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan madaniy, MICE turizm, gastro turizm, mehmonxona, SPA, fitnes, umumiy ovqatlanish, turistik mahsulotlarni sotish kabi xizmatlarini kengaytirish asosida turizmga ixtisoslashgan klaster faoliyatini tashkil etish choralari ko‘rish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qaroridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 12-dekabrda 02-12-17-2014-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida hududda ekoturistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini ikki barobarga oshirish imkoniyatlari dalillangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning u yerda qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida 1 kundan 4 kungacha bo‘lgan tur paketlar ishlab chiqish hamda turizm sohasining sub’ektlari tomonidan taqdim etiladigan “Cash back” chegirmalarni o‘z ichiga olgan hamyonbop turpaketlar ishlab chiqish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qaroridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 12-dekabrda 02-12-17-2014-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish ekoturizm sub’ektlarining daromad darajasining 22%ga o‘shirishga xizmat qilgan;

Orolbo‘yi hududlari ekoturistik imkoniyati va xususiyatidan kelib chiqib, tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar oqimining oshirishini e‘tiborga olgan holda turistik xizmatlar hajmining 2027-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Turizm ko‘mitasi tomonidan qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilingan “2023-2025-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o‘rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar” dasturi va “Yo‘l xaritalariga”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 12-dekabrda 02-12-17-2014-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Orolbo‘yi mintaqasining ekoturistik salohiyatini rivojlantirish natijasida hududlarga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonining o‘shishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda “ekoturizm” tushunchasining nazariy asoslari va mintaqada ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ilg'or xorijiy tajriba, O'zbekistonda ekologik turizm yo'nalishini rivojlantirishning mexanizmlari tadqiq qilingan.

“Ekologik turizm” tushunchasi terminologik doirasidagi tahlillar asosida “Ekoturizm – ijtimoiy mas'uliyatli va ekologik barqaror rivojlanishni, tabiiy va madaniy merosni saqlashni, muhofaza qilishni ta'minlovchi turistik faoliyat, bioxilma-xillik va mahalliy aholi o'rtasidagi sinergetik munosabatlarga asoslangan, tabiatga sayohat qilishni ko'zda tutuvchi, turizmning serdaromad innovatsion yo'nalishi” ekanligi e'tirof etilgan. Dissertatsiyada ekoturizmning rivojlanishi bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy manbalar, amaliyoti keng tadqiq qilingan holda muallif tomonidan ekoturizm tushunchasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan tendensiyalar asoslangan va ekoturizmning takomillashgan konsepsiyasi taklif etilgan. Xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlardagi mavjud tajribaga asosan, ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari, xususan, ekologik, ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi salbiy oqibatlarini minimallashtirish, ekologik barqaror muhitni saqlab turish, ekologik ta'lim va tarbiya, mahalliy aholi tomonidan turistik faoliyatdan daromad olish va ularda tabiatni muhofaza qilishga mayl uyg'otish, sayyohlar boradigan mintaqalar barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shish, iqtisodiy samaradorlik kabi tamoyillar hamda ularning o'zaro farqli xususiyatlari yoritilgan.

Tadqiqot ishida, Orolbo‘yi mintaqasining Ustyurt platosi, Jiltirbas, Sudoch'e tabiiy suv havzalari, Sariqamish ko'li, Saygachiy davlat buyurtmaxonasi, Sudoch'e ornitologik davlat buyurtmaxonasida ekoturizmni rivojlantirish salohiyati juda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mazkur hududlarda ekoturizmni rivojlantirish milliy va mintaqaviy darajada iqtisodiyotning ikkinchi yoki ta'bir joiz bo'lsa uchinchi darajali yo'nalishi sifatida qaralyapti. Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha qonunchilikning, ayniqsa, soliq siyosati, viza tizimi, yerdan foydalanish qoidalarining nomukammalligi, haligacha jahon andozalariga javob beradigan qo'riqxonalar negizida ekoturizmni rivojlantirishning konkret rivojlantirish rejasi va strategiyasi mavjud emasligi kabi muammolar sabab oqsayotganligi aniqlandi. Qo'shimcha ravishda, yashash sharoiti, transport vositalari, tashkillashtirilgan turistik marshrutlar, ekoso'qmoqlar jihozlari, kuzatuv joylari va boshqa vositalar bilan jihozlangan infratuzilmaning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi sohaning rivojlanishiga to'siq bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechimi sifatida, tadqiqot jarayonida zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida mintaqada ekologik turizmni

rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ekoturizm sohasini o‘shirish omillarini aniqlash, mintaqada kichik ekoturistik zonalar, ekoturizm klasterlari va boshqalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ekoturizm sohasiga raqamli iqtisodiyot, blokchayn texnologiyalarini tadbiq qilish, ekologik turizm biznesini qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni amalga oshirishga qaratilgan Orolbo‘yi mintaqasiga xos bo‘lgan ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari taklif qilindi (1-rasm).



1-rasm. Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari⁶

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida, mamlakatimizning ekologik vaziyati inqirozli bo‘lgan va yuqori turistik salohiyatga ega Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari atroflicha tadqiq qilish zarurligi aniqlandi.

Ekologik maskanlardagi atrof-muhit va uning resurslaridan foydalanish uchun to‘lovlarni belgilashda joylashgan hududga sayohat qilish xarajatlari ham e‘tiborga olinishi maqsadga muvofiq. “Contingent valuation” (Shartli baholash) metodi boshqa keng qo‘llaniluvchi qiymat metodlari orasida dam olishga bo‘lgan talabni va resurs qulayliklarining jami qiymatini baholovchi muhim kompleks usul hisoblanadi. Tadqiqotda “Contingent valuation” (Shartli baholash) metodi Orolbo‘yi mintaqasidagi tabiiy turistik joylarni baholashda qo‘llanilishi taklif qilingan. Ushbu metod cho‘l sharoitidagi bozorga tegishli bo‘lmagan tovarlarning rekreatsion qiymatini (bahosini) aniqlashning eng aniq va mos usullaridan biridir. “Contingent valuation” (shartli baholash) usulidagi asosiy gipoteza shundan iboratki, maskanning qiymati tashrif buyuruvchilarning ushbu joydan foydalanish uchun qancha to‘lashga tayyor ekanliklarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Orol dengizini va mintaqadagi ekologik turizm manzillarini ko‘rishga tashrif buyurgan sayyohlardan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, har bir sayyoh mavjud ekoturistik manzilning sharoitlaridan va to‘lov qobiliyatidan kelib chiqib, quyidagi narxlarni taklif qilishdi (1-jadval).


1-jadval

Orolbo‘yi hududlarida 2022-yil tanlab olingan ekoturizm manzillari va ularga sayyohlarning taklif chipta narxi⁷

№	Ekoturistik manzil nomi	Joylashgan manzili	Maydoni (ga)	Nukus shahridan uzoqligi (km)	Ixtisoslashgan xizmat turlari	Taklif qilingan “kirish chiptasi” narxi, so‘m
1.	Orol dengizi sohili bo‘yi	Mo‘ynoq tumani	500 475	320	Suzish va qumda toblanish	70 000
2.	Sudoch‘e ko‘li	Qo‘ng‘irot tumani	50 395	200	Flamingolarni tomosha qilish	50 000
3.	Ustyurt kanyonlari	Qo‘ng‘irot tumani	1 578	260	Kanyonlarni tomosha qilish	40 000
4.	Aqchako‘l	Ellikqal‘a tumani	1 613	132	Baliq ovlash	35 000
5.	Baday to‘qay biosfera qo‘riqxonasi	Amudaryo tumani	2 262	90	Flora va faunadan bahramand bo‘lish	30 000
6.	Sulton uvays tog‘ tizmalari	Kegeyli tumani	31 255	114	Tog‘ yonbag‘irlar iga sayohat	25 000

Bu formuladan foydalanib har bir ob‘ektga 1 kishi uchun o‘rtacha kirish to‘lovi narxi aniqlangan bo‘lib, natijalar quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



2- rasm. Ekoturizm ob'ektlariga 1 kishi uchun o'rtacha to'lovi (so'm)⁸.

Orolbo'yi mintaqasida ekologik, tabiiy-iqlimiy resurs salohiyati, shart-sharoitlari va xususiyatlarini inobatga olib, mintaqada ekoturizmni rivojlantirishning o'ziga xos mezonlarini joriy etish, ekoturizmni tartibga soluvchi maxsus tashkiliy tuzilmani shakllantirish, mintaqaga xos yoki yaqin bo'lgan shart-sharoitlarga ega ekoturizmi rivojlangan davlatlarning tajribalarini qo'llash lozim.

Orolbo'yi mintaqasida turizm sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini samarali amalga oshirilishi natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida tadbirkorlik subyektlari tomonidan madaniy, MICE turizm, gastro turizm, mehmonxona, SPA, fitnes, umumiy ovqatlanish, turistik mahsulotlarni sotish kabi xizmatlarini kengaytirish asosida turizmga ixtisoslashgan klaster faoliyatini tashkil etish negizida ekoturistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini ikki baravar oshirish choralarini ko'rish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishining **“Orolbo'yi mintaqasida ekologik turizmning rivojlanish holati va unga ta'sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Orolbo'yi mintaqasida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili, mintaqani barqaror rivojlanishida ekologik turizmning rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, turizmni rivojlantirishning SWOT – tahlili amalga oshirilgan. Ushbu bob bo'yicha xulosalar berilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida Orolbo'yi mintaqasiga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, Xorazm viloyatiga 2015-yilda jami 63 400 nafar sayyohlar tashrif buyurgan bo'lsa, shundan 40 600 nafari xorijiy va 22 800 nafari mahalliy sayyohlarni tashkil qilgan. 2019-yilda esa jami 2 646 597 nafar sayyohlar tashrif buyurib, shundan 420 828 nafar xorijiy va 2 225 769 nafar mahalliy sayyohlarni tashkil qilgan. 2019-yilda 2015-yilga nisbatan Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayohlar soni 11 barobardan ziyodga, mahalliy sayohlar oqimi esa 184 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Ammo, 2020-yilda mintaqaga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

sayyohlar soni COVID-19 pandemiyasi ta'siri natijasida keskin kamaygan. 2021-yilning o'zida viloyatga tashrif buyurgan jami sayyohlar soni 1 297 542 nafarni tashkil qilib, shundan xorijiy sayyohlar soni 39 805 nafarni va mahalliy sayyohlar soni 1 257 737 nafarni tashkil qilgan. 2022-yilga kelib viloyatga 137 462 xorijiy sayyoh, 1 488 483 nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurdi (2-jadval).

2-jadval

Orolbo'yi mintaqasiga 2015-2022-yillarda tashrif buyurgan sayyohlar sonining o'zgarish dinamikasi⁹

kishi

Yillar	Xorijiy sayyohlar (Xorazm viloyati)	Mahalliy sayyohlar (Xorazm viloyati)	Jami	Oldingi yilga nisbatan o'zgarish	Xorijiy sayyohlar (Qoraqalpog'iston Res.)	Mahalliy sayyohlar (Qoraqalpog'iston Res.)	Jami	Oldingi yilga nisbatan o'zgarish
2016	46 614	708 229	754 843	+112%	6 271	7 064	14 335	+118%
2017	60 600	1 100 000	1 160 600	+153%	8 246	7 439	15 785	+110%
2018	123 210	530 455	1 653 665	+140%	82 046	347 000	429 046	+270%
2019	420 828	2 225 769	2 646 597	+160%	100 411	551 000	651 411	+151%
2020	23 050	337 450	500 360	- 87%	3 000	40 000	43 000	- 94%
2021	39 805	1 257 737	1 297 542	+360%	24 032	284 584	308 616	+716%
2022	137 462	1 488 483	1 625 945	+125%	50 391	600 849	651 240	+211%

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasiga 2015-yilda jami 11500 nafar sayyohlar tashrif buyurgan bo'lsa, shundan 5 100 nafari xorijiy va 6 400 nafari mahalliy sayyohlarni tashkil qilgan. 2019-yilda esa jami 46 386 nafar sayyohlar tashrif buyurib, shundan 21 399 nafar xorijiy va 24 987 nafar mahalliy sayyohlarni tashkil etgan. So'nggi 5 yil davomida turizm infratuzilmasining rivojlanishi, ya'ni yangi turistik yo'nalishlarning ochilishi, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining sonini ko'payishi natijasida 2019-yilda 2015-yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni deyarli 4,2 barobarga, mahalliy sayyohlar oqimi ham deyarli 4 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta'siri natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni 30 000 nafarni va mahalliy sayyohlar 40 000 nafarni tashkil qilgan. 2021-yilda 24 032 xorijiy sayyoh va 284 584 mahalliy sayyoh Qoraqalpog'istonga tashrif buyurdi. 2022-yilga kelib Qoraqalpog'istonga 50 391 xorijiy sayyoh, 600 849 nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurdi.

Tadqiqot jarayonida Orolbo'yi mintaqasida turizm biznesi bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar o'rtasida anketa so'rovnomalari o'tkazilgan. Aksariyat respondentlarning fikriga ko'ra, Orolbo'yi mintaqasida ekologik turizm atrof-muhitni himoya qilishda, turistlarga har xil ekstremal sarguzashtlarni taklif qilishda hamda turizm biznesiga foyda keltirishini bildirganlar. Orolbo'yi mintaqasida turizm biznesida ekoturizmning asosiy atributlari sifatida tabiiy va madaniy o'ziga xoslikni, ekologik ta'lim va atrof-muhitni himoya qilishni yaxshi tushunishini bildirganlar.

⁹ O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarimiz jarayonida Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishning SWOT tahlili amalga oshirildi (3-jadval).

3-jadval

Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning SWOT tahlili ¹⁰

Kuchli tomonlar		Kuchsiz tomonlar	
1	Atrofdagi mashhur yo‘nalishlarning mavjudligi - Samarqand, Buxoro, Xiva, Nukus	1	Markaziy Osiyoda turizmning mintaqaviy integratsiyasining yo‘qligi
2	Ustyurt va Amudaryo deltasida ekstremal turizmni rivojlantirish imkoniyati	2	Turizm infratuzilmasi va tegishli xizmatlar sifatining pastligi.
3	Ovchilik, agroturizm, gastronomik, diniy va rekreatsion imkoniyatlar, boy flora va fauna.	3	Orolbo‘yi hududining O‘zbekistonning qolgan qismlari bilan turistik yo‘nalishda hamkorlik va integratsiyasining sustligi.
4	Qadimiy qal’alar (Qadimiy Xorazm oltin halqasi) va Saviskiy nomidagi san’at muzeyining mavjudligi.	4	Orolbo‘yi ekoturizm destinatsiyalari uchun marketing targ‘iboti pastligi sababli sayyohlar tur paketlarni uchinchi qo‘ldan sotib olishi va narx balandligi.
5	“O‘zbekiston – Xavfsiz sayohatni KAFOLATLAYDI” davlat dasturi	5	Malakali turoperatorlar, sayyohlik agentliklari va gidlarning yetishmasligi
6	Qoraqalpog‘istondagi turizm korxonalarida katta iqtisodiy rag‘batlantirish paketlariga ega	6	Ekoturizm yo‘nalishlarida klaster yondashuvini qo‘llab-quvvatlash uchun qonunchilik va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganligi.
Imkoniyatlar		Tahdidlar	
1	Sayyohlarning Orolbo‘yi mintaqasiga qiziqishlarini oshishi	1	Iqlim o‘zgarishi va uning salbiy oqibatlari
2	Cho‘l turizmini rivojlantirish istiqbollari	2	Qishloq joylarida yuqori migratsiya darajasi
3	80 dan ortiq davlat fuqarolarining vizasiz kelish imkoniyati	3	Markaziy Osiyoda yangi ekoturizm yo‘nalishlari o‘rtasidagi raqobat
4	Turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari	4	Turizmda mavsumiylikning ahamiyati
5	Ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasining mavjudligi	5	Ekstremal ob-havo sharoiti, suvning sho‘rlanishi va havoning ifloslanishi
6	Pandemiyadan so‘ng, sayyohlarning tabiatni ko‘rishga qiziqishi	6	Global maydonda siyosiy beqarorlik

¹⁰Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mintaqada ekologik turizmni rivojlantirishning kuchli tomonlariga mavjud tabiiy va madaniy meros ob'ektlari Orolbo'yining o'ziga xos tabiiy iqlim sharoiti, flora va faunasi hamda mintaqada yoshi uch ming yildan ziyod bo'lgan arxeologik qal'alarni kiritish mumkin. Orolbo'yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishning kuchsiz tomonlariga mavjud infratuzilmaning talab darajasida emasligi, mintaqa turistik korxonalarining bozor talablari darajasida faoliyat ko'rsatmasligi, taklif qilinayotgan turistik mahsulotlarning yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, mintaqada ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari sifatida viza rejimining erkinlashuvi, mintaqada turizmni maqsadli rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni qabul qilinishi, transport infratuzilmasini rivojlanishi hamda "O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish" Konsepsiyasini qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Iqlim o'zgarishi, qishloq hududlarida migratsiya darajasining oshishi, mavsumiylik va ekologik vaziyatning keskinlashuvi Orolbo'yi mintaqasida ekoturizmni rivojlanishiga tahdidlar sifatida baholandi.

Tahlil natijalariga muvofiq, Orolbo'yi mintaqasi ekoturizmi uchun marketing targ'iboti pastligi sababli sayyohlar tur paketlarni uchinchi qo'ldan sotib olishi va narx balandligi sohaning kuchsiz tomonlari sifatida qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning u yerda qolish muddatlarini uzaytirish maqsadida 1 kundan 4 kungacha bo'lgan tur paketlar ishlab chiqish hamda turizm sohasining sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan "Cash back" chegirmalarni o'z ichiga olgan hamyonbop turpaketlar ishlab chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu SWOT natijalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari Orolbo'yi mintaqasi hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 2022-2026-yillarda turizmni rivojlantirishning maqsadli dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu dasturlarda mintaqada ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli vazifalar belgilangan bo'lib, xususan, yangi ekoturistik marshurtlarni ishlab chiqish, Xorazm milliy tabiat bog'i hamda Quyi Amudaryo davlat biosfera davlat rezervatlarida yangi ekologik turizm zonalarini barpo qilib, mintaqaga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirishdan iborat hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida, Orolbo'yi mintaqasining turli hududlarida turistlarga qulayliklar yaratish uchun maqsadli ekoturizm marshurtlari xaritasini ishlab chiqish va hududning turli nuqtalarida 50 ming nafar turistlarni qabul qilish imkonini beradigan ekolagerlar va ekomarsrutlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **"Orolbo'yi mintaqasida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari"** deb nomlangan uchinchi bobida Orolbo'yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari, Dougnut iqtisodiy modelining Orolbo'yi

mintaqasiga tadbqiq qilinishi va ekoturizm klasterlarini shakllantirish yo‘llari ochib berilgan.

Tadqiqotlarimiz jarayonida, Orolbo‘yi mintaqasida ekoturizmni targ‘ib qilish maqsadida “Ecotourism and Nature Based Tourism in Uzbekistan” elektron platformasining dasturiy paketi yaratilgan. Mazkur elektron platforma keng jamoatchilikka mo‘ljallangan bo‘lib, undan mahalliy va xorij turoperatorlari, soha mutaxassislari, oliy ta’lim muassalari talabalariga mo‘ljallangan. Shuningdek, mazkur platforma Orolbo‘yi mintaqasidagi ekoturizm imkoniyatlarini, ekoturistik marshrutlarni mahalliy va xalqaro bozorlarda reklama qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida, Orolbo‘yi mintaqasiga xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi hamda sayohat kunlarini ko‘paytirish maqsadida, “Khiva-Aralkum” kompleks ekoturistik marshruti ishlab chiqildi. “Khiva-Aralkum” turistik marshruti boshqa turistik marshrutlardan farqli jihati, uning iqtisodiy jihatdan samaradorligi aniqlandi. Ushbu marshrutning iqtisodiy samaradorligi sayyohlarning sayohatdan qoniqishi, xursandligi bilan proporsional bog‘liqdir. Tur paketda 11 ta ekoturistik destinatsiya qamrab olingan bo‘lib, sayyohlarga cho‘l hayotining barcha jihatlarini tasavvur qilishga imkon beradi. Ushbu kompleks ekoturistik marshrutini amaliyotda qo‘llanilishi natijasida, Orolbo‘yi mintaqasida turistlarning qolish muddatlarini 1 kundan 2 kunga oshiradi. Mazkur ekoturistik marshrut 1100 km masofani o‘z ichiga olib, o‘z tarkibiga jami 11 ta turistik ob‘ektlarni qamrab oladi (4-jadval).

4-jadval

“Khiva-Aralkum” tur marshrutining iqtisodiy tahlili¹¹

AQSH dollarida

	Ko‘rsatkichlar	Turistlar soni, kishi				
		1	2	3	4	5
I.Kirim:						
1.1	Tur paket sotuv narxi (kishi boshiga)	590	299	199	159	129
	<i>Umumiy kirim</i>	590	598	597	636	645
II. Xarajatlar:						
2.1	Transport (4x4 mashina, 1000 km yo‘l)	300	300	300	300	300
2.2	Gid-ekskursavod mehnat haqi	100	100	100	100	100
2.3	Yurtada qolish narxi	10	20	30	40	50
2.4	Oziq-ovqat, suv	10	20	30	40	50
	<i>Umumiy xarajatlar</i>	420	440	460	480	500
	foyda (= Kirim - Xarajatlar)	170	158	137	156	145
	daromad solig‘i (4%)	6.8	6.32	5.48	6.24	5.8
	Sof foyda	163	152	132	150	139

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

